

**«MAKSIMAL» MILLIY VALYUTADA MUDDATLI BANK OMONATI _____-sonli
SHARTNOMASI**

_____ sh.

“ _____ ” _____ 20__y.

“Tenge Bank” Aksiyadorlik tijorat banki, bundan buyon matnda – “Bank” deb yuritiladi, 20____ yil «____» _____dagi «____»-sonli Ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi _____ nomidan bir tomondan va _____, bundan buyon matnda – “Omonatchi” deb yuritiladi, pasport asosida faoliyat yurituvchi _____ nomidan ikkinchi tomondan, birgalikda esa – “Taraflar” deb yuritiladi, quyidagilar to‘g‘risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Omonatchi _____ (*summasi harflar bilan yoziladi*) miqdorida milliy valyutadagi pul summasini (bundan buyon matnda – “Omonat”), shuningdek mazkur SHartnomaning amal qilish davri mobaynida kiritilgan qo‘shimcha badallarni 20606_____-sonli muddatli depozit hisobvarag‘iga joylashtirish uchun topshiradi, Bank esa ularni qabul qilish majburiyatini oladi hamda qayd etilgan omonat summasini, qo‘shimcha badallarni, shuningdek hisoblab yozilgan foizlarni mazkur shartnomada belgilangan shartlarda va tartibda qaytarish majburiyatini oladi. Mazkur shartnoma Bankka omonat summasi tushgan kundan e‘tiboran tuzilgan hisoblanadi. Mazkur shartnomaning tuzilganligi va omonatlarga pul mablag‘lari to‘langanligi omonat daftarchasi bilan tasdiqlanadi.

1.2. Shartnoma [date_open] dan [close_date] gacha 12 oy muddatga tuziladi.

2. OMONAT SHARTLARI

2.1. Bank omonatchining arizasi asosida, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq omonatchi tomonidan pasport yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat taqdim qilingan holatda hisobvaraqa ochadi.

2.2. Omonat shartlari:

- omonat turi – muddatli;
- foiz stavkasi – yillik **20%**;
- omonat muddati – **12 oy**;
- minimal omonat summasi – 1 000 000 (bir million) so‘m, maksimal omonat summasi cheklanmagan;
- qo‘shimcha badal – omonatning amal qilish davri mobaynida nazarda tutilgan;
- qisman olish (asosiy summa) – nazarda tutilmagan;
- foizlar kapitalizatsiyasi – nazarda tutilmagan;
- omonat bo‘yicha muddatini uzaytirish (prolongatsiya) nazarda tutilmagan.

2.3. Omonatchiga quyidagi hisobvaraqa ochiladi: № 20606_____ «Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari».

2.4. Mazkur Shartnomaga asosan omonatchiga ochilgan bank hisobvaraqlari shartnomaning amal qilishi tugaganidan so‘ng (omonat qoldiqlari mavjud bo‘lmagan holatda) yopiladi.

2.5. Omonatga boshlang‘ich badal va/yoki qo‘shimcha badal bevosita omonatchi tomonidan yoki uning vakili tomonidan naqd pul shaklida ham, naqd pulsiz shaklda ham kiritilishi mumkin.

2.6. Omonatning naqd pul shaklidagi badali to‘lanishi Kirim orderi asosida amalga oshiriladi.

2.7. Omonatchiga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan TEB № _____ seriyali omonat daftarchasi topshiriladi.

2.8. “Tijorat banklarida foizlarni hisoblab yozish to‘g‘risida Nizom”ga asosan (Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 30-yanvarda 1306-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan), omonatchining

hisobvarag'ida omonat bo'lgan taqvim kunlarining haqiqiy soni asos qilib olinadi. Bunda, bir yildagi kunlar hisob-kitob soni sifatida 365 kun qabul qilinadi. Omonat summasiga foizlar Bankka omonat tushgan kundan keyingi kundan boshlab u omonatchiga qaytariladigan kungacha yoxud boshqa sabablarga ko'ra omonatchining hisobvarag'idan omonat chegirib olinadigan kungacha hisoblab yoziladi.

2.9. Omonat yopilganida asosiy summa, qo'shimcha badallar, hisoblab yozilgan foizlar avtomatik ravishda omonatchining 20606 «Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari» hisobvarag'idan Omonatchining talab qilib olguncha saqlanadigan «20206_____» depozit hisobvarag'iga o'tkaziladi. Talab qilib olinmagan omonat summasi, shuningdek barcha hisoblab yozilgan, biroq to'lanmagan omonat bo'yicha foizlar talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga o'tkaziladi. 20206 «Talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'i»dagi mablag'lar qoldig'iga foizlar hisoblab yozilishi talab qilib olguncha saqlanadigan omonat shartlari asosida amalga oshiriladi.

2.10. Omonat muddatining tugashi tufayli qaytarish kuni dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to'g'ri kelgan holatda, omonatning berilishi dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kunlaridan keyingi birinchi ish (bank) kunida amalga oshiriladi.

2.11. Agar Omonatchi muddatli omonatni uning muddati tugaguncha qaytarishni muddatdan oldin talab qilsa, u omonatni olish rejalashtirilgan sanagacha bir oydan kechiktirilmagan holda Bankni o'z maqsadi haqida yozma shaklda ariza yuborish orqali xabardor qilishi shart.

3. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1 Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:

3.1.1. Omonatchiga muddatli omonat shartlarini batafsil tushuntirish;

3.1.2. Mazkur shartnoma imzolanganidan so'ng omonatchiga hisobvaraqlar ochish;

3.1.3. Bank kassasiga naqd pullar to'lanishidan oldin milliy valyutada muddatli bank omonati shartnomasini yoki omonatga kiritish maqsadida bank hisobvarag'iga mablag'lar o'tkazilishini rasmiylashtirish;

3.1.4. Omonatchidan mazkur shartnomaning 1.1-bandida qayd etilgan miqdordagi pul mablag'larini qabul qilish va ularni 20606 «Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari» depozit hisobvarag'iga o'tkazish;

3.1.5. Mazkur shartnomaning 2.2, 2.8, 2.11-bandlariga muvofiq foizlarni hisoblab yozish va to'lash;

3.1.6. Depozit muddati tugaganidan so'ng, mazkur shartnomaning 2.2, 2.10 va 2.11-bandlariga muvofiq depozit omonati summasini qaytarish;

3.1.7. Hisobvaraqlardagi mablag'larning tegishli saqlanishini va daxlsizligini ta'minlash. Hisobvaraqlardagi mablag'larni xatlash yoki hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlardagina amalga oshirilishi mumkin;

3.1.8. Bank sirini o'z ichiga oladigan ma'lumotlar himoyasini ta'minlash, omonatchi va omonat to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga faqat amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda va tartibda taqdim qilish.

3.2 Bank quyidagilarga haqli:

3.2.1. Tegishli davlat organlarining ijro hujjatlari kelib tushgan holatda, omonatchining e'tirozlaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rish (pul mablag'larini xatga olish, pul mablag'larini akseptsiz chegirib olish, hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish va h.k.);

3.2.2. Bankning belgilangan tariflariga asosan omonat hisobvarag'idagi pul mablag'lari bo'yicha bank operatsiyalari bo'yicha xizmat ko'rsatilganligi uchun komissiya haqini olish;

3.2.3. Omonatchilar manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash uchun Bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga asosan, zarur hollarda, mijoz hisobvarag'idagi pul qoldiqlarining omonat daftarchasiga muvofiqligi to'liq inventarizatsiyasini o'tkazishga haqli;

3.2.4. Bank yangiliklarini, shuningdek omonatchining hisobvarag'idan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha axborotni SMS-xabarlar shaklida mazkur shartnomada ko'rsatilgan omonatchining mobil

aloqa vositasi raqamiga yoki jo'natmalar sifatida ko'rsatilgan elektron pochta manziliga yuborish;

3.2.5. jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonuniylashtirishga va terrorizmni mablag' bilan ta'minlashga qarshi kurashish maqsadida Bank omonatchidan hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar qonuniyligini tasdiqlaydigan va omonatchini identifikatsiyalash imkonini beradigan axborot va hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga haqli;

3.2.6. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonuniylashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish yoki ular ijro etilishini rad qilish.

3.3 Omonatchi quyidagi majburiyatlarni oladi:

3.3.1. Muddatli bank omonati, mazkur shartnoma shartlari bilan tanishib chiqish va omonat bo'yicha to'ldirilgan hujjatlarni o'z imzosi bilan tasdiqlash;

3.3.2. Bankka pul mablag'larini o'tkazish shartlariga rioya qilingan holda, mazkur shartnomaning 1.1-bandida qayd etilgan miqdordagi pul mablag'larini depozit hisobvarag'iga o'tkazish;

3.3.3. Hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa vakolatli organlarning normativ hujjatlariga qat'iy muvofiqlikda amalga oshirish. Hisobvaraqlarni ochish, hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun Omonatchi javobgar bo'ladi;

3.3.4. Bank talabiga asosan mazkur shartnomaga muvofiq talab qilinadigan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim qilish;

3.3.5. Hisobvaraqlarga yangilish hisoblab yozilgan va/yoki hisobvaraqlardan yangilish chegirib olingan mablag'lar aniqlangan holatda, darhol bu haqda Bankka ma'lum qilish va hisobvaraqlardan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalanmaslik;

3.3.6. Omonat daftarchasini butun va yaxshi holatda saqlash, unga hech qanday ma'lumotlarni kiritmaslik, omonat daftarchasi yo'qotilgan holatda bu haqda Bankka yozma shaklda ma'lum qilish;

3.3.7. Omonatchi (yoki uning vakili) o'z manzili va/yoki telefon raqamlari, shu jumladan mobil telefon raqamlari, familiyasi, ismi yoki otasining ismi o'zgartirilganligi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat almashtirilganligi haqida Bankni 1taqvim kuni mobaynida yozma shaklda xabardor qilish majburiyatini oladi.

3.4 Omonatchi quyidagilarga haqli:

3.4.1. Omonat hisobvarag'iga pul mablag'lari qabul qilinganidan va o'tkazilganidan so'ng belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan omonat daftarchasini olish;

3.4.2. Mazkur Shartnomaning amal qilishini muddatdan oldin bekor qilish, bu haqda Bankni shartnomani bekor qilish mo'ljallangan sanagacha bir oydan kechiktirilmagan holda xabardor qilish;

3.4.3. Omonatning muddatdan oldin qaytarilishini talab qilish. Bunda, omonatchiga kapitalga aylantirilgan foizlarsiz (kapitalizatsiyasiz) omonatning asosiy summasi to'lanadi. Hisoblab yozilgan foizlar omonatchiga to'lab bo'lingan holatda, Bank omonatchiga oldin to'langan foizlar chegirib olingan holda omonatning asosiy summasini qaytaradi;

3.4.4. Omonat bo'yicha shartnoma muddati tugaganidan so'ng omonatning asosiy summasini naqd pul shaklida milliy valyutada olish yoki omonatchining 20206 «Talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'i»ga omonat avtomatik ravishda o'tkazilganidan so'ng, o'z arizasi asosida, omonatchining bank plastik kartasi hisobvarag'iga o'tkazish orqali olish;

3.4.5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, omonatdan shaxsan foydalanish yoki notarial tasdiqlangan ishonchnomani rasmiylashtirish orqali uchinchi shaxslarga omonatdan foydalanish huquqini taqdim qilish;

3.4.6. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, omonatchining boshqa huquqlaridan foydalanish.

4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Shartnoma shartlarini buzgan Taraf shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilmaganligi yoki tegishli bajarilmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

4.2. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmaganligi ya'ni favqulodda va oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar, tabiat sharoitlari (ofatlar), O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari asosida majburiyatlar ijrosi keyinga qoldirilishi (moratoriy), tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi qonun yoki boshqa hujjatning amal qilishi to'xtatib qo'yilishi oqibatida tegishlicha ijro qilish mumkin bo'lmagan holatlarda, bunday majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

4.3. Bank xodimining xizmat vazifalarini bajarishda noqonuniy harakatlari natijasida yuzaga kelgan omonatchiga etkazilgan zararlar uchun Bank javobgar bo'ladi.

5. BOSHQA SHARTLAR

5.1. Mazkur shartnoma ijrosi bilan bog'liq da'volar Taraflar tomonidan o'zaro muzokaralar orqali hal qilinadi. Da'volarni muzokaralar orqali hal qilish imkoniyati bo'lmagan holatda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida hal qilinadi.

5.2. Omonatchi Bankning operatsion kuni muddatlari, Bank tomonidan omonatchilar bilan ishlash va ularga xizmat ko'rsatish vaqti haqida xabardor qilingan.

5.3. Bank yozma ariza asosida Bank tomonidan belgilangan tartibda faqat Omonatchidan (yoki uning vakolatli shaxsidan) hisobvaraqlar bo'yicha topshiriqni qabul qiladi. Bank tomonidan Omonatchining topshirig'isiz va roziligisiz hisobvaraqlaridan mablag'larning chegirib olinishi faqat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda amalga oshirilishi mumkin.

5.4. Omonat berilishi, u bo'yicha foizlar to'lovi va omonatchining boshqa shaxslarga omonat hisobvarag'idan pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlari ijrosi omonat daftarchasi va shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilingan holatda Bank tomonidan amalga oshiriladi.

5.5. Bank tomonidan omonatga qabul qilingan pul mablag'larining qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 5-apreldagi "Banklarda fuqarolarning omonatlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi 360-II-sonli qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi banklarida fuqarolarning omonatlarini kafolatlash fondi tomonidan kafolatlanadi.

5.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan holatlarda Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va Omonat pasporti talablariga amal qiladilar.

5.7. Mazkur shartnoma Taraflarning har biri uchun bittadan ikkita nusxada o'zbek tilida tuzilgan. Shartnomaning har bir nusxasi bir xil yuridik kuchga ega.

5.8. Mazkur shartnoma omonatchi tomonidan o'z familiyasi, ismi, otasining ismini o'z qo'li bilan yozish orqali imzolanishi kerak. Mazkur shartnomani imzolash orqali omonatchi Bank vakili tomonidan og'zaki tartibda ushbu "Maksimal" milliy valyutada muddatli bank omonatining barcha shartlari tushuntirilganligini tasdiqlaydi.

6. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI:

«BANK»

«OMONATCHI»

«Tenge Bank» ATB

F.I.SH.

Manzili: _____

Tug'ilgan sanasi: _____

Tel.: _____

Fuqaroligi: _____

MFO: _____

Pasport ma'lumotlari:

STIR: _____

Seriyasi _____ va _____ raqami:

Berilgan sana va joyi: _____

Manzili: _____

Tel.: + (____) _____

Omonatchi imzosi va F.I.SH.:

Yurist

(imzo)

(Omonatchi o'z qo'li bilan to'ldiradi)

(imzo)